

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



"KIRISH"

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti
Kasbiy baholash mezonini
tasdiqlaydi.

2026-yil



"TASDIQLAYDI"

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi

2026-yil

**KASBIY (IJDODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA "CHET (INGLIZ, FRANSUZ, NEMIS) TILJI"
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)**

Toshkent - 2026

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil " " dagi _____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

O'zMU "Ingliz filologiyasi" kafedrası mudiri,
f.f.d., prof. Djumabaeva J.

O'zMU "Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik"
kafedrası mudiri f.f.d., prof. Sadullaeva N.

O'zMU "Nemis filologiyasi" kafedrası mudiri,
f.f.n., prof. Imyaminova Sh.

Taqrizchilar:

O'zMU " Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik "
kafedrası f.f.d.prof. Siddikova I.

"Fransuz filologiyasi" kafedrası mudiri,
f.f.d., prof. Jafarova D.

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil 23-apreldagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Ushbu dastur ingliz, nemis va fransuz tillaridan imtihon topshiradigan ko'zi o'jiz abituriyentlarga mo'ljallangan bo'lib, unda abituriyentlarning chet tillarining tinglab tushunish, og'zaki nutq ko'nikmasi, matnda ishlatilgan so'z va iboralarni tarjima qila olish qobiliyati aniqlanadi.

Dasturda keltirilgan ushbu mavzular abituriyentlarning xorijiy tillarda bilimlarini baholashda muhim o'rinni tutadi.

Fanning maqsadi va vazifasi

Mazkur dasturning maqsadi ko'zi o'jiz abituriyentlarning ingliz, fransuz va nemis tili fanlaridan bilim darajasini aniqlashdan iborat.

Dasturning vazifasi ko'zi o'jiz abituriyentlarning chet tillarida eshitish ko'nikmalarini aniqlash;

- abituriyentning mustaqil fikrini bayon etish kompetensiyasini bilish;
- original matni tushunish darajasini aniqlash;
- berilgan matnlar yuzasidan o'zining fikr mulohazasini chet tilida bayon qilish;
- og'zaki nutq ko'nikmasi, leksik til boyligi, talaffuzini aniqlash;
- abituriyentning og'zaki suhbatga kirishish kompetensiyalarni aniqlashdan iborat.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

Fonetika. Abituriyentlarni o'z fikrini erkin, ifodali va to'g'ri bayon etishlari uchun fonetik qoidalarga rioya qilishi muhim hisoblanadi. Bunda asosan ular so'zlarning to'g'ri talaffuz qilishi, ohangga ahamiyat bergan holda gapirishi va urg'ularning to'g'ri qo'llanilishiga ahamiyat berish kerak.

Grammatika. Chet tilidagi nutqni to'g'ri bayon qilishda asosan gaplarda so'z tartibi, gaplarning maqsadiga ko'ra turlarini bilish muhim ahamiyat kasb qiladi. Bundan tashqari abituriyentlar quyidagi grammatik xodisalarni bilishi kerak:

Mustaqil so'z turkumlari:

Ot. Turdosh va atoqli hamda ularning turlari, otlarda son kategoriyasi, otlarning ko'plik yasash formalari va ularning turlanishi haqida o'xtalib o'tilgan.

Sifat. Sifat darajalari, asliy va nisbiy sifatlari, sifatlarning yasalishi, sifatlarning otlashishi va ularning turlanilishi.

Son. Sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo'llanilishi. Sonlarning otlashishi. Olmosh va ularning turlari. Olmoshlarning kelishiklarda qo'llanilishi va ularning gapdagi sintaktik vazifasi.

Fe'l. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'llarning yasalishi. Fe'llarning tuslanishi. Fe'l nisbatlari. Mayl kategoriyasi. Fe'l zamonlari.

Ravish va ularning turlari, yasalishi.

Yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va ularning ma'no va tuzilish jihatdan turlari.

Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar, tasdiq va inkor so'zlar.

Sintaksis. Gap. Gap bo'laklari. Bog'lovchilar va ularning turlari. Uyushiq bo'lakli gaplar. Ajratilgan bo'laklar. Gapning tuzilishi jihatdan turlari.

Qo'shma gap. Ergash gapli qo'shma gap va ularning turlari.

Og'zaki suhbatning taxminiy mavzulari:

1. O'zbekiston. O'zbekiston tarixi, aholisi, maydoni, chegarasi, poytaxti, tarixiy shaharlari, milliy bayramlari, O'zbekistonning chet davlatlar bilan aloqasi.
2. Tili o'rganilayotgan mamlakat tarixi, aholisi, geografik joylashishi, sanoati, siyosiy tizimi, yirik shaxarlari, milliy bayramlari, buyuk shaxslari.
3. Yil fasllari.
4. Tarjimai holi, mening oilam, mening ish kunim, mening do'stim, mening ona shahrim, mening sevimli yozuvchim (shoirim), men tanlagan kasb.
5. Mening dam olish kunim, teatr, kino, kutubxonaga tashrif, sport mening hayotimda.

“CHET (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ) TILI” FANIDAN KASBIY (IJODIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ko'zi o'jizlar uchun kasbiy (ijodiy) imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi o'jizlar uchun kasbiy (ijodiy) imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchtadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi “5-baho” (a'lo)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- ijodiy fikrlay olsa;
- grammatikani chuqur bilsa;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;
- erkin suhbat olib borish ko'nikmasiga ega bo'lsa.

2. Abituriyentning javobi “4-baho” (yaxshi) ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- ijodiy fikrlay olsa;

- grammatikani bilsa;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olsa;
- erkin suhbat olib borishda biroz qiynalsa.

3. Abituriyentning javobi “3-baho” (qoniqarli)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimlarga ega bo'lsa;
- nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashga qiynalsa;
- fikrini to'liq bayon qila olmasa;
- savollarga to'liq javob bera olmasa;
- grammatikani to'liq bilmasa.

4. Abituriyentning javobi “2-baho” (qoniqsiz)ga baholanishi uchun:

- nazariy bilimga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lmasa;
- tarjima qila olmasa;
- savollarga javob bera olmasa;
- grammatikani bilmasa;
- erkin muloqotga kirisha olmasa.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Chet tili fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

Chet tili fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.